



JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA MAHKUMLARNI UMUMIY TA'LIM VA KASB-HUNARGA O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Murodqulov Mo'minjon Mizrobjonovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursantl

Abdukarimov Saidislom G'ayrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursantl

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14138693>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadqiqot mavzusining dolzarbligi shundan iboratki, jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum qilingan va jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarni kasb-hunarga o'rgatishning maqsadi, ularni jazo muddatini o'tab chiqqanidan keyin hayotga tarbiyalash, hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlari va qayta bu yo'lga kirmasliklari uchun mahkumlarga kasb-hunar o'rgatish, bilimlari qilib ozodlikka chiqarish asosiy vazifa bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Jazo, jinoyat, kasb-hunar, ta'lim, tarbiya, axloqan tuzatish, axloqan tuzatish vositalari, kasb-hunar tayyorgarligi.*

Dunyoda jinoyatchilik profilaktikasi muammosi tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, BMTning jinoyatchilikning oldini olish va odil sudlov bo'yicha 13-kongressida ushbu masala milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda shaxs, jamiyat va davlat hayotining eng dolzarb muammolaridan biri ekanligi qayd etilgan. Jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash bilan bir qatorda tayinlangan jazoni ijro etishning oqilona yo'lga qo'yilishi jinoyatchilikni profilaktika qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xalqaro hamjamiyat tomonidan barcha davlatlarda penitensiar tizimni zamonaviy tahdidlar va talablarni inobatga olib isloh qilish zarurati mavjudligi ta'kidlanmoqda. Jinoiy jazolarni liberallashtirish sharoitida sudlar tomonidan jinoyat sodir etgan shaxsga sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi, shuningdek, jazoni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olib ko'proq jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanishi, shu bilan birga jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod etilishi odil sudlovning qay darajada amalga oshirilganligining bosh mezoni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Biz "Adolat – qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida mamlakatimizda qonunga hurmat, jinoyat holatlariga murossasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarliklarning oldini olishda alohida e'tibor qaratiladi" deb ta'kidlab o'tgan.

Dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bilan birga jinoyatchilikka





qarshi kurash, jinoyatlarni barvaqt oldini olish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish hamda ushbu toifadagi shaxslarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilgan qator islohotlar natijasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatdagi huquq-tartibotni ta'minlashda hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. Ushbu kompleks chora-tadbirlar Respublikadagi jazoni ijro etish tizimida ham o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Darhaqiqat, "Hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin". Buning oldini olishda albatta huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida chora-tadbirlarni aniq manzilga yo'naltirish, ishsiz hamda g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega bo'lgan shaxslarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish borasida tizimli ishlarni tashkil etish muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi ijobiy ishlarning huquqiy asoslaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining 14-maqsadi "Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida inson qadrini belgilash" deb nomlangan bo'lib, unda mahkumlar va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga qaytishga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatida vazifalarni belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida qonuni 3-moddasida asosiy tushunchalarda ta'lim tarbiya tushunchalariga ta'rif berib o'tilgan. "**Ta'lim** bu— ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon" va shuningdek tarbiya so'ziga ham ta'rif berib o'tilgan.

"**Tarbiya** — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon" deb keltirilgan.





Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning ta'lim va kasb tayyorgarligi. Ta'lim olish haqida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida "Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'limning boshlang'ich va umumiy shakli tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak"ligi haqida yozib o'tilgan. Shuningdek, Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalarida ham "Bundan foyda olishga qodir bo'lgan barcha mahbuslarga kelgusida ta'lim, shu jumladan ruxsat beriladigan mamlakatlarda diniy tarbiya olish imkoniyati ta'minlanishi lozim. Savodsiz va kichik yoshdagi mahbuslarni o'qitish majburiy hisoblanishi lozim va qamoqxona ma'muriyati bunga alohida e'tibor qaratishi kerak. Ozod etilgan mahbuslarni qiynalmay o'qiy olish uchun mahbuslarni o'qitishni imkoniyat doirasida mamlakatning amaldagi ta'lim tizimi bilan bog'lash lozim." deb yozib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50,53-moddalarida har bir fuqaroning ta'lim olish huquqiga ega ekanligi, har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi kafolatlanishi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi ilgari amalda bo'lgan qonunchilikdan farqli ravishda bir bobda ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligini birlashtirgan, ularni mustaqil ravishda emas, balki mehnat munosabatlarini tartibga solish bilan birgalikda olib qaraydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlarning ma'lum bir qismini to'liq va umumiy o'rta ma'lumotga, ayrim hollarda boshlang'ich ta'limga ega bo'lmaganlar tashkil etadi. Ana shu nuqtayi nazardan ozodlikdan mahrum etish joylarida Jinoyat-ijroiya kodeksining 100-101-moddalariga asosan mahkumlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasi 2-qismida mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi ham kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 100-moddasiga muvofiq, yoshi o'ttizdan oshgan mahkumlar, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslar xohishlariga ko'ra ta'lim olishga jalb etiladilar. Mahkumlar kasb tayyorgarligining asosiy maqsadi bevosita ishlab chiqarishda ularga kasb o'rgatishdir. Kasbga o'rgatish mahkumlar ishlaydigan korxonada faoliyatining xususiyati, u yoki bu mutaxassislikka bo'lgan talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ayni paytda ma'muriyat alohida mintaqalarning ommaviy kasblarga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abraham, R. (1981). The relationship of cognitive style to the use of grammatical rules by Spanish-speaking ESL students in editing written English. Unpublished dissertation, University of Illinois.
2. Abraham, K. (1985) Field independence-dependence and the teaching of grammar TESOL Quarterly, 19, 689-702.
3. Abrans, '/.. (2002) Surfing to cross-cultural awareness' Using Internet-mediated projects to explore cultural stereotypes. Foreign Language Annals, 35. 141-160. Acton, W, (1979). Second language learning and perception of difference in attitude Unpublished doctoral dissertation. University of Michigan.
4. Brown, H. Douglas (2000). Principles of language Learning Englewood cliffs, Prentice Hall.
5. Brown. Douglas (2001). Teaching by Principle (2 Edition) White Plains, Addison Wesley Longman Inc.
6. Foley, Joseph and Thompson, Linda (2003). Language learning: A lifelong Process, London Arnold.
7. Social and humanitarian sciences in education system.
8. Turaeva Sh, Sahaldarova (2020) "Effective Methods of didactic".
9. Turaeva Sh, Yaxshibaeva N (2020) "THE IMPORTANCE OF PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING".
10. Turaeva Sh, Hakimova M, Mamatqulova M (2020) "THE IMPORTANCE OF DIDACTICS IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN TEXTBOOKS"
11. Turaeva Sh, Isroilova Z (2021) "COGNITIVE FACTORS IN LANGUAGE LEARNING:TRANSFER,INTERFERENCE, OVERGENERALIZATION"
12. Turaeva Sh, Hakimova M, Mamatqulova M (2021) "Uzbekistan Plans to Promote Social Work for the Welfare of Vulnerable Children and Families". ISSN:(E)2792-1883

<https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/167>

